DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18143471

KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIMDA MANTIQIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Abdurasulova Zulfiya Abdushukur qizi

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya*: Kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim oluvchilarda faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ushbu bilimlarni real hayotiy vaziatlarda qo'llash, mustaqil fikrlash, asoslangan qarorlar qabul qilish hamda muammolarni samarali hal etish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu jarayonda mantiqiy fikrlash ta'lim oluvchining kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur ilmiy maqolada kompetensiyaga asoslangan ta'lim sharoitida mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, didaktik tamoyillari hamda pedagogik mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mntiqiy fikrlashning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar, tadqiqotga yo'naltirilgan topshiriqlar va faol o'qitish metodlaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar*: Kompetensiyaga asoslangan ta'lim, mantiqiy fikrlash, kognitiv kompetensiyalar, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, ta'lim samaradorligi, pedagogik mexanizmlar, zamonaviy ta'lim modeli.*

Annotation: *The competency-based education model is one of the priority directions of modern education systems, aiming not only to enable learners to acquire theoretical knowledge but also to develop essential competencies such as applying this knowledge in real-life situations, thinking independently, making informed decisions, and effectively solving problems. In this context, logical thinking emerges as a key factor supporting the cognitive development of learners. This scholarly article analyzes the theoretical and methodological foundations, didactic principles, and pedagogical mechanisms for developing logical thinking skills within a competency-based*

education framework. The study identifles factors influencing the formation of logical thinking and substantiates the effectiveness of using problem-based situations, research-oriented tasks, and active teaching methods in the educational process.

Keywords: *Competency-based education, logical thinking, cognitive competencies, problem-based learning, independent thinking, educational effectiveness, pedagogical mechanisms, modern education model.*

Kirish

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat nazariy bilimlarni egallashga, balki ushbu bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, muammolarni hal qilish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash kabi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan [6]. Ushbu pedagogik yondashuv XXI asr shartlarida talab etiladigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, shu bilan birga analitik fikrlash, tanqidiy qaror qabul qilish, reflektiv fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari [5].

Mantiqiy fikrlash- bu bilimlarni tizimli va izchil tarzda tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish hamda qarorlar qabul qilish jarayoni hisoblanadi [7]. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlash o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta’minlovchi va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltiuvchi asosiy kompetensiyalardan biridir. Shu bilan birga, muammoli vaziyatlar va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish pedagogic samaradorlikni sezilarli oshiradi [4].

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaga asoslangan yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va tanqidiy fikrlashni integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi, bu esa ularning murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi va amaliy bilimlarni tizimli qo‘llashga yordam beradi [1]. Shu bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va reflektiv qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni turli ijtimoiy va akademik vaziyatlarda moslashuvchan bo‘lishiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish faqat akademik ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini, muammolarni innovatsion usullar bilan hal qilish qobiliyatini va o‘z-o‘zini boshqarish malakalarini shakllantiradi. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish nafaqat ta’limning samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarni XXI asr kompetensiyalriga mos shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu asosda, mazkur, maqola kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlash ko‘nimlarini tizimli rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini, didaktik tamoyillarini va pedagogic mexanizmlarini kompleks tarzda tahlil qiladi.

Metodlar

Ushbu tadqiqot kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy solishtirish, empirik kuzatish, so‘rovnoma va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalangan. Nzariy tahlil orqali kompetensiyaga asoslangan ta’lim va mantiqiy fikrlash bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar, jumladan xalqaro tadqiqotlar va pedagogik adabiyotlar chuqur o‘rganildi [5]. Bu yondashuv mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy solishtirish metodi yordamida turli pedagogic yondashuvlar va ularning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha muammoli vaziyatlar, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar va faol o‘qitish metodlari (problem-based learning, inquiry-based learning, collaborative learning) samadorligi baholandi. [1].

Empirik kuzatish va so‘rovnoma metodlari orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari amaliyotda o‘rganildi. Kuzatish jarayonida o‘quvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, xulosalar chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari baholandi. Shuningdek, interaktiv mashg‘ulotlar va faol o‘qitish metodlaridan foydalanish natijalri tahlil qilindi, bu kompetensiyaga asoslangan ta’limning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi [4].

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi mixed-methods yondashuviga asoslangan bo‘lib sifat va miqdoriy ma’lumotlarni integratsiyalash orqali aniq va ishonchli natijalarga erishish imkonini berdi. Bu metodologik yondashuv kompetensiyaga asoslangan ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlashnio tizimli rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi [8].

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko‘ra , kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot jarayonida olingan ma’lumotlar va kuzatuvlar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlangan.

1. Pedagogik muhitning rolini oshiradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun qulay pedagogic muhitni yaratadi. O‘quvchilar faol, interaktiv va muammoli vaziyatlarga boy o‘quv jarayonida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi.

2. Muammoli vaziyatlar va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar samaradorligi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning tahliliy, reflektiv va tanqidiy ko‘nikmalarini oshiradi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarga asoslangan xuloslar chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

3. Faol va interaktiv o‘qitish metodlari samarasi. Faol o‘qitish metodlari yordamida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va analitik ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi.

4. Integratsiyalashgan yondashuvning afzalliklari. Kompetensiyaga asoslangan va integratsiyalashgan pedagogik yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni tizimli rivojlantirish imkonini berdi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy, akademik va ijodiy qobiliyatlarini uyg‘unlashtiradi va ularni XXI asr kompetensiyalariga mos tarzda tayyorlaydi.

5. O‘quvchilar tomonidan xulosa chiqarish qobiliyatining rivojlanishi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning xulosalar chiqarish va qaror qabul qilish qobiliyati oldingi pedagogik tajribalarga nisbatan sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Shu bilan birga, ularning muammolarni mustqail hal qilish qobiliyati va reflektiv fikrlash ko‘nikmalari ham kuchaydi.

6. Pedagogik samaradorlik va ta’lim sifati. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va ularning bilimlarini amaliyotga tadbiq etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuv o‘quv jarayonida yuqori sifatli ta’limni ta’minlaydi.

Tadqiqot natijalari kompetensiyaga asoslangan pedagogik yondashuv mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi va pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalarini tahlil qilganda, kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi aniqlandi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tizimli va mustaqil qo‘llash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi [4]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, kompetensiyaga asoslangan pedagogik yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Muammoli vaziyatlar va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarda tahliliy va reflektiv fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu orqali o‘quvchilar sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va mustqail qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Integratsiyalashgan pedagogik yondashuv orqali o‘quvchilar murakkab vaziyatlarda o‘z bilimlarini amaliyotga tadbiq etish qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, faol o‘qitish metodlari prpblem-based learning, inquiry-based learning va collaborative learning mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchilar muammolarni innovatsion uullar bilan hal qilishni o‘rganadi,

yangi g‘oyalarni ishlab chiqadi va reflektiv fikrlash orqali o‘z qarorlarini takomillashtiradi. Bu esa pedagogik jarayonning sifatini oshiradi [8].

Mohokama jarayonida aniqlanishicha, kompetensiyaga asoslangan yondashuv nafaqat mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuvchanlik va akademik muvaffaqiyatlarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu tariqa, mazkur pedagogik yondashuv XXI asr kompetensiyalariga mos bilimli, tanqidiy fikrlaydigan va murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qila oladigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mazkur kompetensiyaga asoslangan ta’lim mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda nafaqat metodik vosita, balki ta’lim jarayonining konseptual asoslaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi tasodifiy yoki faqat individual intellektual qobiliyatlarga bog‘liq jarayon emas, balki maqsadli rejelashtirilgan, kompetensiyaviy jihatdan puxta tashkil etilgan ta’lim muhitining mahsulidir.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim sharoitida o‘quvchi bilimning passiv iste’molchisi emas, qayta ishlovchi va yangi vaziyatlarga moslashtiruvchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Bu jarayonda mantiqiy fikrlash o‘quvchining fikr yuritish madaniyatini belgilovchi asosiy mexanizmga aylanib, bilimlar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni anglash, muammolarning tub sabablarini aniqlash hamda asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish faqat akademik natijaklar bialn cheklanmaydi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim orqali shakllangan mantiqiy fikrlah o‘quvchilardfa mas’uliyatli qaror qabul qilish, dalillarga tayangan holda o‘z pozitsiyasini himoya qilish va murakkab hayotiy yondashuvni namoyon etish qobilyatlarini rivojlantiradi.

Tadqiqot yakuniga ko‘ra, zamonaviy ta’lim tizimida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish alohida fan yoki qo‘shimcha mashg‘ulot doirasida emas, balki butun

ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan holda amalga oshirish lozim. Aynan kompetensiyaga asoslangan yondashuv bu integratsiyani samarali ta’minlaydi va ta’lim mazmunini real hayot ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaga asoslangan ta’lim modeli mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali ta’limning strategik vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy jamiyat talablariga mos, mustaqil fikrlovchi, tahliliy tafakkurga ega va murakkab muammolarni ongli ravishda hal qila oladigan shaxslarni tayyorlashning samarali pedagogik asosini tashkil etadi.

Xulosadan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Ta’lim dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tayyorlash ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompetensiyalarni aniq belgilash va ularni fanlararo integratsiya asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, muammoli vaziyatlar, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar va reflektiv faoliyatni tizimli ravishda o‘quv rejelari va baholash mezonlariga kiritish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

2. Pedagoglarning metodik tayyorgarligini kuchaytirish va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyaga asoslangan ta’limni samarali joriy etish uchun pedagoglarning zamonaviy didaktik metodlar bo‘yicha kasbiy malakasini oshirish zarur. Shu bilan birga, turli ta’lim bosqichlarida mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining shaklllanish dinamikasini o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlarni kengaytirish kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

3. Baholash tizimini mantiqiy fikrlashga yo‘naltirish ta’lim jarayonida an’anaviy bilimga asoslangan baholash usullaridan voz kechib, o‘quvchilarning mantiqiy tahlil qilish, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyatlarini aniqlovchi kompetensiyaviy baholash mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi. Ayniqsa, portfel baholash, amaliy keyslar va reflektiv topshiriqlar asosida baholash tizimini rivojlantirish mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarining real darajasini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barrows.H.S. Is it truly possible to have problem-based learning?Medical Education 2002, 36(9), 627-628.

2. Brookhart.S.M. How to Assess Higher-Order Thinking Skills in Your Classroom. ASCD-2010.

3. Dewey. J.(1938). Experience and Education. Macmillan.

4. Ennis.R.H. The Nature of Critical Thinking: An Outline of Critical Thinking Dispositions and Abilities, (2011).

5. Facione.P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. Insight Assessment- 2015.

6. OECD. Future of Educational and Skills, 2030. OECD Publishing, 2021.

7. Piaget.J. The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press, 1952.

8. Vygotsky.L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.